

2022-yil 3-mart

O'ZBEKISTON - POKISTON BIZNES FORUMIDA, "O'ZKIMYOSANOAT" AJ O'ZINING INVESTITSIYA VA EKSPORT POTENSIALINI TAQDIMOT QILDI VA SHARTNOMALAR IMZOLADI





Joriy yilning 2-mart sanasida Pokiston Islom Respublikasi poytaxti Islomobod shahrida O'zbekiston - Pokiston Biznes forumi bo'lib o'tdi. Ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy, sanoat, transport-logistika va investitsiya loyihalarni amalga oshirish borasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi ko'zlangan forumda "O'zkiyosanoat" AJ vakillari ham ishtirok etishdi. Unda "O'zkiyosanoat" AJ tizim korxonalari va kimyo-texnologik klasterlari salohiyatlari, investitsiya va eksport potentsiallari forum qatnashchilari hamda Pokiston biznes vakillariga taqdimot qilindi. Shu bilan birga, biznes forum doirasida "O'zkiyosanoat" AJ vakillari Pokistonning qator yirik kompaniyalari bilan kimyo sanoatida hamkorlikni yanada kengaytirish imkoniyatlari, mahsulotlar eksporti, yetkazib berish va investitsion loyihalarni amalga oshirish yuzasidan muzokaralar o'tkazishdi. Natijada, "Wah Nobel Group of Companies" bilan 2022-yilda O'zbekistondan Pokistonga 24.000 tonna texnik metanol va 300 tonna natriy nitrat kimyo mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha eksport kelishuviga erishildi.

Pokistonning "Fatima Group" kompaniyasi muzokaralar davomida "Farg'onaazot" AJni xususiylashtirish jarayonida ishtirok etishga qiziqish bildirdi va kompaniyaga bu bo'yicha tegishli ma'lumotlar taqdim etildi. Shu bilan birga, boshqa kimyoviy mahsulotlarni, tashkil etilayotgan kimyo-texnologik klasterlari doirasida ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha o'rganishlar olib borishga kelishib olindi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/pokiston-biznes-forumi>